



UDK: 355.133.4

Abrorbek RAXMONOV,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, f.f.d
E-mail: turktili2024@gmail.com

NamDU professori, f.f.d Z.Isaqova taqrizi asosida

GLOBALLASHUV VA YOSHLARNING HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG'UNLIGI

Аннотация

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi insonni yanada Vatanga sadoqatli, vafodor bo'lishga undashi bilan birga uning himoyasini doimo ta'minlashga da'vat etadi. Mamlakatda harbiy vatanparvar yoshlar sonining ortishi yurtning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo'shadi. Globallashib borayotgan dunyoda yoshlar ta'limi, tarbiyasi kechiktirib bo'lmaz vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Yoshlar tarbiyasini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida qurish, tarbiyaning samaradorligini oshishiga, ta'siri va ko'lamini yanada kengayishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga yoshlarda milliy o'zlikni anglash, yurtidan faxrlanish tuyg'usini his qilish, Vatan oldidagi burchini anglab yetish kabi tuyg'ular rivojlanishida ko'makdosh bo'ladi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, yoshlar, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, umuminsoniy qadriyatlar, qadriyatlar uyg'unligi, milliy o'zlik, mas'uliyat, axborot xurujlari, immunitet, pedagogik model, tarbiya usullari, ta'lim muassasasi, jamoat tashkiloti, pedagoglar malakasi.

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕОБЩЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

Военное патриотическое воспитание побуждает человека быть верным и преданным Родине, а также всегда защищать её. Увеличение численности военно-патриотической молодежи в стране добавляет сил и мощи стране. В глобализирующемся мире образование и воспитание молодежи становится неотложной задачей. Построение воспитания молодежи на основе гармонии национальных и общечеловеческих ценностей способствует повышению эффективности воспитания, его влияния и масштаба. В то же время такие чувства, как чувство национальной идентичности, чувство гордости за Родину, чувство долга перед Родиной, помогают им развиваться.

Ключевые слова: Глобализация, молодежь, военно-патриотическое воспитание, гармонизация общечеловеческих ценностей, национальное самосознание, ответственность, информационные атаки, иммунитет, педагогическая модель, методы воспитания, квалификация образовательного учреждения, общественной организации, педагогов.

GLOBALIZATION AND THE HARMONY OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN THE MILITARY PATRIOTICAL EDUCATION OF YOUTH

Annotation

Military patriotic education encourages a person to be faithful and devoted to the Motherland, as well as always protect it. The increase in the number of military-patriotic youth in the country adds strength and power to the country. In a globalizing world, education and education of young people is becoming an urgent task. Building the upbringing of young people on the basis of harmony of national and universal values helps to increase the effectiveness of upbringing, its influence and scale. At the same time, feelings such as a sense of national identity, a sense of pride in the Motherland, a sense of duty to the Motherland help them develop.

Key words: Globalization, youth, military-patriotic education, harmonization of universal values, national identity, responsibility, information attacks, immunity, pedagogical model, upbringing methods, qualifications of an educational institution, public organization, teachers.

Kirish. Axborot asri deb nomlanuvchi XXI-asr o'zining tezkorligi, shiddatligi bilan jamiyatning barcha sohalariga kirib keldi. Buning ijobiy taraflari bo'lishi bilan birga, salbiy taraflari ham asta sekinlik bilan nomoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda dunyoda yoshlar tarbiyasi birinchi o'rindagi dolzarb mavzuga aylanib ulgurdi desak xato bo'lmaydi. Sababi yoshlar mamlakat kelajagi, ertangi kuni.

Har qanday tarbiya milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilgan bo'lsa bunday tarbiya mukammal, ta'sirchan va umri boqiy bo'ladi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ham shular jumlasidandir.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni nimada? Globallashuv sharoitida yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga ta'sir etuvchi

asosiy ziddiyatlar nimalardan iborat? Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuvi yoshlarda qanday sifatlarni shakllantiradi? Ushbu maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning turi, ularning yoshlar harbiy vatanparvarlik tarbiyasidagi o'rni shuningdek ikki qadriyatning uyg'unlashuvi natijasida yoshlarda paydo bo'luvchi sifatlar misollar yordamida yoritib o'tilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yoshlar tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq mavzuda bugungi kunga qadar qator olim va pedagoglar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Jumladan, qozog'istonlik olim G.U.Kuatova [12], vatanparvarlik tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati haqida izlanish olib borgan. Olima o'z maqolasida milliy qadriyat va an'analarning bola

tarbiyasidagi o'rni, ahamiyatini yoritib o'tish bilan birga milliy o'zlikni asrab qoluvchi asosiy omil sifatida e'tirof etgan.

rus tadqiqotchisi A.Y.Aksenova zamonaviy maktab o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda etnik madaniy an'analarning o'rni, o'quvchilarga etnik madaniyatni tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni [9] yoritib o'tgan.

N.Ortiqov "Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar" [6] nomli risolasi buyuk allomalarning tarbiya haqida aytdan fikrlarini, yoshlar tarbiyasida axloqiy tarbiya va halq pedagogikasining o'rni yoritib o'tgan.

O'zbekistonlik olimi R.Ro'zieva "Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish" [7] nomli risolasi qadriyatlarning nazariy falsafiy masalalari, rivojlanish bosqichlari va barkamol avlod tarbiyasidagi roli to'g'risida yoritib o'tgan.

Adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatmoqdaki bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, yoshlarni tarbiyalash mavzusida ilmiy risolalar, tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi mavzusida tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bu esa ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borishga zaruriyat tug'dirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tadqiqot usullaridan adabiyotlarni tahlil qilish, hujjatlarni tahlil qilish, tizimli tahlil, mavhumlashtirish, kuzatish, pedagogik eksperiment kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. "Globallashuv" bugungi kunda dunyo mamlakatlari aholisining turmush-tarzi, dunyoqarashiga, o'zaro munosabatlariga ta'sirini ko'rsatmoqda. Albatta, buning ijobiy va salbiy ta'sirlarini ko'rishimiz mumkin. Ijobiy ta'sirlari sifatida insonlar o'zga davlatlarning madaniyati, tili, dini va qadriyatlaridan xabardor bo'lishi, istalgan mavzuda cheksiz axborot manbayiga ega bo'lishi, bilim olishi, hunar o'rganishi kabi misollarni keltirib o'tsak, salbiy taraflari sifatida eng avvalo milliy qadriyat, an'ana va urf-odatlarining unutilishiga, milliy o'zlikni saqlab qolish tushunchasining zaiflashayotganligiga, vatanparvarlik tuyg'usi o'rni vatansizlik tuyg'usi egallayotganligi, yoshlarda milliy qahramonlar, buyuk sarkardalardan fahrlanish tuyg'usining sustlashayotganligini ko'rishimiz mumkin. Buning o'ziga yarasha ayrim sabab va omillarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Ota-onalarning farzand tarbiyasiga yyetarlicha ahamiyat bermayotganligi;

Farzand xuddi gulga o'xshaydi. Gulning parvarishi bog'bonga bog'liq bo'lganligidek, farzand tarbiyasi ham avvalo uning ota-onasiga bog'liq. Bugungi globalashuv davri jamiyatning iqtisodiy sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ochiqroq so'zlaganda moddiy ehtiyojlar kishilarning ma'naviy ehtiyojlaridan ustun kelmoqda. Ayrim ota-onalar farzandlarini qarindosh-urug'lariga, bobo yoki buvisining tarbiyasiga topshirib horij davlatlariga ishlash uchun ketayotganligi hech kimga sir emas. Hatto ayrim ota-onalar yillar davomida o'z yurtiga kelmasdan, farzandlari bilan onlayn muloqat qilib o'zga yurtlarda musofirchilikda tirikchilik qilib yurganlari ham mavjud. Albatta bunday holat oilaning iqtisodiy holatining yaxshilanishiga, ma'lum miqdorda sarmoyaga ega bo'lishiga olib keladi.

Biroq masalaning ikkinchi jihati borki bolaning tarbiyasi uning yoshligidan shakllanib boradi. Jamiyatimizda yoshlar orasida kelib chiqayotgan jinoyatlarni tahlil qilsak aksariyati noto'liq oilalarda voyaga yyetgan farzandlar tomonidan sodir etilganligini ko'rishimiz mumkin. "Yoshlar orasida jinoyatchilik ko'rsatkichining oshishida albatta, oilaning, xususan ota-onalarning aybi katta" [10]. Farzand tarbiyasida aynan o'g'il bola tarbiyasida otaning o'rni

beqiyosdir. Chunki otaning nigohi, qattiqqo'lligi va tarbiyasi o'g'il bolaning kelajak hayotida muhim rol o'ynaydi. Halqimizda "ota-bo'lish oson, otalik qilish qiyin" [5, 347] degan tushuncha bor. Otaning bergan tarbiyasi, o'gitlari, shaxsiy na'munasi yigit kishini Vatani oldidagi yig'itlik burchini o'tashga, harbiy xizmatga borishga undaydi.

Harbiy xizmat bo'lsa yigit kishi uchun ma'suliyat, sabr-toqat, yigit kishining irodasi toblanadigan maskandir. Harbiy-xizmatni o'tab qaytgan yigit kelajak hayoti uchun muhim bo'lgan narsalarga ega bo'ladi. Avvalo ma'suliyat, javobgarlik, intizom kabi yigit kishiga xos bo'lgan sifatlarga. Keltirilgan sifatlarni navqiron yoshlarni kelajakda jamiyatda o'z o'rini topishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Birgina misol Samarqand viloyatining Nurobod tumanida har yili 238 nafar yoshlar harbiy xizmatni o'tab qaytadilar. 2024-yil yakuniga ko'ra Mudofaa vazirligi ma'sul ofitserlari harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlarni keyingi hayot faoliyatlarini o'rgandi. Unga ko'ra harbiy xizmatni o'tab qaytgan 238 nafar yoshlardan 40 % (95 nafari) oliy ta'lim muassasalariga qabul qilangani, 25% (60 nafari) harbiy xizmatda shartnoma asosida qolgani, 25% (60 nafari) tadbirkorlik faoliyati bilan, 6% (14 nafari) qishloq xo'jalik sohasida, 4% (9 nafari) qurilish sohasida faoliyat yuritayotgani ma'lum bo'ldi. Xulosa qilib aytganda harbiy xizmatga borgan yoshlarning aksariyati kelajak hayotini izga solgan, jamiyatda o'z o'rni egallaganini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasini oshirishda ustoz va murabbiylarning professional darajasining yyetarli emasligi, ta'lim sifatining pastligi;

Vatanparvarlik tarbiyasi ta'lim muassasalarida turli yo'llar bilan o'qituvchining shaxsiy namunasi orqali o'quvchilar ongiga singdiriladi. O'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, ularda milliy qahramonlar va sarkardalardan faxrlanish tuyg'usini uyg'otish, milliy qadriyat va an'analarga sodoqatli bo'lish va asrash kabi sifatlarni mashg'ulot jarayonida, bayram va tadbirlarda, sport o'yinlarida, kundalik faoliyatda amalga oshiriladi. Biroq ayrim pedagoglarning kasbiy faoliyatiga nazar solinsa, ularda yuqoridagi sifatlarni o'quvchi yoshlar ongida shakllantirish uchun ularning professional darajasi yuqori emasligida. "Bugungi kunda maktablarda 502867 nafar o'qituvchi faoliyat olib bormoqda. Shulardan 282577 nafar o'qituvchilar tegishli toifaga ega emas" [11]. "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim xisoblanadi. Pedagoglar va professor o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir" [1]. Birgina misol tarix fani mashg'ulotida bo'lib o'tgan milliy kurashlar, ozodlik harakatlari, milliy qahramonlarning ko'rsatgan jasorati, buyuk siymolarni yaratgan kashfiyotlari to'g'risida faqatgina yillar haqida ma'lumot berishga tayanib qolish. Aksincha ushbu davrda yashagan millat qahramonlarining ko'rsatgan jasoratlari, fidoyiliklari va Vatan ravnaqi uchun qo'shgan hissalarini keng yoritib berish. Aslini olib qaraganda barcha fanlarning ham o'qitilish sifati shunday bo'lishi kerak.

Maktablardagi ta'lim sifati pastligining asosiy sababi: davlat ta'lim standartining mukammal emasligi (asosan boshlang'ich sinf darsliklarini qayta tahrirdan o'tkazish kerakligi), o'quvchilar sonining ko'pligi (uy vazifalarini to'liq tekshirish uchun vaqt yetmasligi), o'quv moddiy texnik bazasini rivojlantirishga zaruriyat borligi, bolalarda bilim olishga qiziqishning pastligi. "Talaba yoki o'quvchi bilish, tushinish, qoidalarni aytib berish bilan kifoyalanib ijobiy baho olmoqda. Taxlil qilish, ta'lim mazmuniga ijodiy yondashish pedagoglarning etiboridan chetda qolayotganligi" [8].

Atrofdagi insonlarning mahalla, qo'ni-qo'shni qarindosh-urug'larning yoshlar tarbiyasiga nisbatan beparvoligi, "menga nima" qabilida ish tutayotganligi;

Mahalla milliy qadriyat va urf odatlar beshigidir. Shu bilan birga yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim

maskan xisoblanadi. Ota-bobolarimizdan qolgan gap bor “Bir yigitga yetti mahalla ota-ona”. Chunki mahallada yoshlar o'zining tengdoshlari bilan kundalik muloqatda bo'lishadi, birgalikda tadbir va marosimlarda qatnashadi. Ularning hatti xarakati “akvariumdagi baliq” singari mahalla oqsoqollari, nuroniyalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar tomonidan kuzatib turiladi. Yoshlarning biron nojo'ya hatti-xarakati yoki tarbiyasidagi salbiy holatlarning nomoyon bo'lishi ularda tarbiyaviy, profilaktik nasihatlar berishga sabab bo'ladi. Biroq bugungi kunda mahallalarda jinoyatchilik sonining, profilaktik va probatsiya nazoratida turuvchi yoshlarning ko'payib borayotgani afsuski haqiqatdir. “Agar mahallada rais, profilaktika inspektori o'z ishiga fidoyi bo'lsa, bu yerdan muhit mutlaqo boshqa bo'ladi” [3]. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti joriy yilning iyul oyida Shayxontohur tumanidagi Yangi kamolon mahallasi shtabi bilan tanishdi. Maxallaning profilaktik inspektori maxallasida birona ham jinoyat sodir bo'lmagani aytdi. Natijada davlat rahbari barcha profilaktika inspektorlariga mahallada o'rnatilgan tizimni namuna sifatida ko'rsatdi.

Yoshlarning aksariyat qismi o'z vaqtini ijtimoiy tarmoqlar qarshisida o'tkazayotganligi;

Bugungi kunda 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan insonlarning deyarli barchasi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilaridir. Ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilarining aksariyat qismini yoshlar tashkil qilayotganligi ayrim taraflari ijobiy sanalsa ayrim taraflari salbiy illat sifatida nomoyon bo'lmoqda. Jumladan, ularning turli onlayn qimor o'yinlariga aralashib qolayotganligi, mentalitetimizga zid bo'lgan videoroliklar targ'ib qilayotganligi, soatlab vaqtini bemaqsad ijtimoiy tarmoq qarshisida o'tkazayotganligi, turli xil yolg'on axborotlarga ishonib o'z umrini xazon qilayotganligi afsuski jamiyatning eng og'riqli nuqtalaridan biri bo'lib qolmoqda. Natijada yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatining pasayishi, tanqidiy baho berish xislatining zaiflashishi kabi salbiy holatlar yuz bermoqda. “... o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir” [2].

Milliy qadriyatlarimizda ota-ona holidan xabar olish, ularni hurmat qilish va e'zozlash aytib o'tilgan. Biroq bugungi kunlarda “telefon orqali suhbatlashdim” “onlayn gaplashdim” deya o'ziga tasalli beruvchi yoshlar soni ko'paygan. Keks ota-onalarimizni holidan xabar olish, ularga mehr ko'rsatish, ziyoratlariga borish qadriyatlarimizga xos bo'lgan tushunchadir. Zero mehr, silai-rahm, oqibat masofadan emas,

jonli ko'rishib uchrashganimizdagina paydo bo'luvchi ezuq qadriyatlarimiz sirasiga kiradi.

Halqimizda “O'z uying o'lan to'shaging” “Ona yurtning-oltin beshiging” “O'zga yurtda shoh bo'lguncha o'z yurtning gado bo'l” degan iboralar mavjud. Keltirilgan iboralarni tub mohiyatiga nazar solsak ushbu iboralar halqimiz ongida ming yillar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan go'zal tuyg'u – vatanparvarlik tuyg'usining nomoyon bo'lishidir.

Vatanni sevisish uni himoya qilish va asrab avaylash, yurt taraqqiyotiga xissa qo'shish milliy qadriyat va urf odatlarimiz hamoxangligida farzandlarga go'daklik chog'idan singdirib kelinadi. “Vatanparvarlik tuyg'usi go'daklikdan boshlab shakllantirilsa u so'ngi nafasgacha boqiy bo'ladi” [4].

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usi hech qachon birdan, ma'lum bir dastur yoki qandaydir vosita orqali shakllanib qolmaydi. Uning shakllanishi, paydo bo'lishi va rivojlanishi yillar davomida atrofdagi insonlar, ota-ona, ustoz-murabbiy, qo'ni-qo'shni va tengdoshlar ta'siri natijasida paydo bo'ladi. Avvalo insonda vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi. So'ngra uning tarkibiy qismi bo'lgan harbiy vatanparvarlik tuyg'usi shakllantiriladi. Birgina misol o'zbek halqining ma'naviy qadriyatlari ichida chaqaloqni beshikka yotqizib voyaga yetkazishadi. Oilada farzand tug'ilsa avvalo unga beshik sotib olinadi. Keyingi farzandlarning tug'ilishi boshqa yangi beshik sotib olinishiga sabab bo'lmay aksincha akasi yoki opasi yotgan beshikda ulg'ayadi. Hattoki ayrim o'zbek xonadonlarida ikki avlod, uch avlod voyaga yetgan beshiklarni ko'rishimiz mumkin. Beshik bor joyda onalar alla aytadi. Alla orqali go'dak taskin topadi, orom oladi. Onaning farzandiga bo'lgan barcha mehri, orzu-umidlari birgina allada mujassamlashadi. Go'dak ongida ilk tarbiya ona allasi bilan boshlanadi. So'ngra chaqaloqlik davri tugab bolalik davriga qadam qo'yadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, globallashuv sharoitida yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga yoshlarning milliy qadriyatlarini unitishi, g'arb madaniyatiga bo'lgan qiziqishning ortishi, axborot makonidagi yolg'on ma'lumotlar oqimining ko'pligi, yoshlar o'rtasida ishsizlik sonining ortishi, halqaro harbiy siyosiy vaziyatning keskinlashuvi dinamik va murakkab xarakterga egadir. Bu ta'sirlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish uchun doimiy ravishda monitoring olib borish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va olingan natijalarni amaliyotga tatbiq etish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent-2017. B.45. O'zbekiston nashriyoti
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent-2017. B. 88-89. O'zbekiston nashriyoti.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent-2017. B. 59. O'zbekiston nashriyoti.
4. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdieva K. Pedagogika. Toshkent-2001. B.340. O'qituvchi nashriyoti.
5. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdieva K. Pedagogika. Toshkent-2001. B.347. O'qituvchi nashriyoti.
6. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Toshkent-1997. B. 7-39. O'zbekiston nashriyoti.
7. Ro'zieva R. Yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish. Toshkent-2011. B. 7-45. Fan nashriyoti.
8. Qayumov B.I. Fan va ta'lim ilmiy jurnali. Toshkent-2023. 11-son. B.284
9. Aksenova A.Yu. Rol etnokulturnykh traditsiy v nravstvennom vospitanii sovremennykh shkolnikov. Avtoref. Dissert. Sank-Peterburg-2004. S. 7-17.
10. Elektron manba. <https://kun.uz/news/2021/11/03/ozbekistonda-yos'hlar-jinoyatchiligi-kolami-ortyapti-sabablar-haqida-tahliliy-suhbat>. Murojaat qilingan sana 01.08.25. 10:50.
11. <https://aniq.uz/yangiliklar/maktab-talimi-tizimi-muammolar-va-istiqbollar>. Murojaat qilingan sana 01.08.25. 12:20
12. <https://infourok.ru/statya-na-temu-rol-nacionalnih-traditsiy-v-patrioticheskoy-vospitanii-3046789.html>. Murojaat qilingan sana. 03.08.2025. 11:00